

**Komila RAJABOVA,**  
 Navoiy shahar 11-davlat  
 ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining  
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## «OZ-OZ O'RGANIB DONO BO'LUR...»

**Darsning mavzusi:** Alisher Navoiy hikmatlari tahlili. (6-sinf, III chorak)

### Dars maqsadi:

**a) ta'limiy maqsad:** Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asaridagi hikmatlarni o'rganish va tahlil qilish;

**b) tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarda insoniy fazilatlarni tarkib toptirish, ular qalbiga vatan, el manfaati, ona tiliga muhabbat kabi tushunchalarni singdirib borish;

**d) rivojlantiruvchi maqsad:** mumtoz adabiyot namoyandalari ijodiga qiziqish uyg'otish, ularning ijodini o'qib-o'rganishga chorlash.

**Darsda foydalaniladigan usullar:** «Zakovat», «Jumboq», «Hikmatlar daraxti», «So'z gavharin qadab qo'y».

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** darslik, video-proyektor, kompyuter, ekran, videolavhalar, rag'bat kartochkalari, adib surati va asarlari, o'quvchilar chizgan rasmlar.

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism:

- salomlashish, davomatni aniqlash;
- siyosiy va ma'naviy daqiqa tashkil etish.

Dars musobaqa usulida tashkil qilinadi. O'quvchilar asarda qo'llangan so'zlardan kelib chiqqan holda «**Saxovat**» va «**Hilm**» guruhlariga bo'linadi. Guruh nomlari izohlanadi.

**II. O'tilgan mavzuni takrorlash.** Avvalgi darsda o'rganilgan mavzuni takrorlash, o'quvchilarning ulug' mutafakkir hayoti va ijodi bo'yicha bilimlarini sinash maqsadida «**Zakovat**» o'yini o'tkaziladi. O'yin shartiga ko'ra o'quvchilar maxsus qurilmani aylantiradi va undagi ko'rsatkich qaysi raqamni ko'rsatsa, shu raqam ostidagi savolga javob beradi. O'quvchi javob berolmasa, guruhidan yordam oladi. Shu tariqa guruhlar navbat-ma-navbat savollarga javob berishadi.

Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. «Mahbub ul-qulub» asaridan keltirilgan parчалarning bugungi adabiy tilimizdagi matnini kim tayyorlagan? (*Atoqli navoiyshunos olim Porso Sham-siyev*)

2. «Xamsa» asari qachon yozilgan va u nechta doston-dan iborat? (*Asar 1483–1485-yillarda yozilgan, 5 doston-dan iborat*)

#### III. Yangi mavzu bayoni:

**O'qituvchi:** «Mahbub ul-qulub» – falsafiy va axloqiy-ta'limiy asardir. Unda axloqiy qarashlarga ta'rif berilib, falsafiy xulosalar chiqariladi.

Turkiy va fors-tojik adabiyotida ushbu janrdan Yusuf

Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» asarlari yaratilgan. Alisher Navoiy ushbu asarini umrining so'ngida – 1500-yilda yaratdi va uni «**Mahbub ul-qulub**» – «**Ko'ngillarning sevgani**» deb atadi. Unda insonga xos ezgu fazilatlar tarannum etilgan.

Asarning kirish qismida shoir quyidagi masnaviyini keltiradi:

*Gahi topdim falakdin notavonlig',  
 Gahi ko'rdum zamondin komronlig',  
 Base issig', sovug' ko'rdim zamonda,  
 Base achchig', chuchuk totdim jahonda.*

Darhaqiqat, «Mahbub ul-qulub» – umri davomida ko'rgan-kuzatganlarini teran tahlil qilib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy merosidir. Mazkur asar, muallifning o'zi ta'kidlaganidek, **uch qismga** bo'linadi: **birinchi qism** har xil odamlarning fe'l-atvori va ahvoli haqida; **ikkinchi qism** yaxshi fe'l xosiyati va yomon xislat kasofati haqida; **uchinchi qism** turli foydali kuza-tishlar va misollar haqida.

Adib saxovat va himmatni insoniyat bog'ining hosildor daraxti, u daraxtning foydali mevasi deb ataydi. Haqiqatan ham kishilar o'rtasidagi munosabatlarda saxovat, himmat kabi xislatlar yo'qolgan kuni bu hayot daraxti qurib qolmog'i tayin. Navoiyning bundan besh asr avval ilgari surgan g'oyalari bugun ham o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda.

Bugun «Mahbub ul-qulub» asaridan berilgan tanbihlar ustida ishlashni davom ettiramiz hamda guruhlararo bahsga kirishamiz. «**Saxovat**» guruhi «Saxovat va himmat to'g'risida»gi 11–12-tanbihlar mazmunini, «**Hilm**» guruhi esa «Hilm to'g'risida»gi 18-tanbih mazmunini yoritib beradi.

(*Guruhlar tanbihlarni izohlab beradilar.*)

Navbatdagi bosqichda o'quvchilar bahsda tahlil qilingan saxovat hamda hilm fazilatlarining ta'rifini «**Zuk-kolar boshqotirmasi**» usuli asosida maxsus yozilgan qog'ozlar ichidan ajratib oladilar va doskaga joylashtiradilar. Qolgan o'quvchilar daftarlariga yozib boradilar.

<b>SAXOVAT</b> (saxiylik)
Insoniyat bog'ining hosildor daraxti
Daraxtning foydali mevasi
Odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizi
Bebaho gavhar
Bulut

HILM (muloyimlik)
Inson vujudining xushmanzara mevali bog'i
Odamiylik olamining javohiriga boy tog'i
Kishilik kemasining langari
Insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshi
Axloqli odamning qimmatbaho libosi

O'qituvchi guruhlar fikrini umumlashtiradi.

**O'qituvchi:** Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q andin.

Alisher Navoiy til va so'zlash odobiga alohida e'tibor qaratadi, o'z zamonasidagi yolg'onchilikni o'ziga shior qilib olgan ayrim insonlarni qoralaydi va egrilikning umri qisqa ekanligini misollar bilan dalillaydi.

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

**O'qituvchi:** Endi esa, yosh navoiyshunoslar, «**Jumboq**» o'yinini o'tkazamiz. O'yin shartiga ko'ra «**Saxovat**» guruhi Navoiy hikmatlarining ruscha variantini aytadi. «**Hilm**» guruhi bu qaysi hikmat ekanligini topib, uni o'zbek tilida aytishi kerak bo'ladi. Keyin esa «**Hilm**» guruhi a'zolari hikmatlarning ruscha variantini aytadi, «**Saxovat**» guruhi bu qaysi hikmatligini topib aytadilar.

«**Saxovat**» guruhi: *Милее книги в мире дрыга нем.*

«**Hilm**» guruhi: *Kitobdin yaxshiroq do'st yo'q jahonda.*

**O'qituvchi:** Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari hikmatlarga juda boyligini ko'rib turibmiz. Bu hikmatli so'zlarni kundalik hayotda turli soha kishilari tilidan eshitish mumkin. Ko'pchilik ularning mazkur asardan olinganini bilmaydi ham. Chunki bu hikmatlar allaqachon xalq maqollariga aylanib ulgurgan. Endi siz «**Hikmatlar daraxti**»dagi mevalarga yozilgan Navoiy hikmatlarini o'qib, davom ettirishingiz lozim bo'ladi. Marhamat.

**Hikmat:** Har kishikim birovga qozg'ay choh...

**O'quvchi:** Tushkay ul choh uza o'zi nogah.

**Hikmat:** Har kimki so'zi yolg'on...

**O'quvchi:** Yolg'oni zohir bo'lg'on.

**Hikmat:** Olamdan g'amsiz o'tay desang...

**O'quvchi:** Ilm-u hunar o'rgan.

**Hikmat:** Aytar so'zni ayt...

**O'quvchi:** Aytmas so'zdan qayt.

**Hikmat:** Odamiy ersang, demagil odami...

**O'quvchi:** Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.

**Hikmat:** Oz-oz o'rganib dono bo'lur...

**O'quvchi:** Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

*Guruhlarning Navoiy hikmatlarini qay darajada davom ettira olishlari hamda izohlashlari baholanib, rag'batlantiriladi.*

«**Bilimdonlik sinovi**» bosqichida test orqali har bir o'quvchining egallagan bilimi individual sinovdan o'tkaziladi.

**Namuna: 1.** «Mahbub ul-qulub» asarining ikkinchi qismi nima haqida?

- A) odamlarning fe'l-atvori va ahvoli haqida
- B) turli foydali kuzatishlar haqida
- D) hayotiy qiyinchiliklar haqida
- E) yaxshi fe'l xosiyati va yomon xislat kasofati haqida \*

2. Inson vujudining xushmanzara mevali bog'i va odamiylik olamining javohirlarga boy tog'i nima?

- A) yaxshilik B) saxovat D) himmat E) hilm\*

3. Insoniylikdagi qaysi xislat kema langari va mezon toshiga o'xshatiladi?

- A) axiylik B) saxiylik D) hilm\* E) saxovat

4. Saxovat nima?

- A) yaxshilik bog'ining iforli guli
- B) odamiylik mulkining bebaho boyligi
- D) insoniyat bog'ining hosildor daraxti\*
- E) eng xushbo'y mushk-u anbar

**O'qituvchi:** Ana endi «**Topqirlar bahsi**»da guruh sardorlari berilgan tasviriy ifodaga mos keluvchi so'zlarni oldindan tayyorlab qo'yilgan maxsus qog'ozlarga markerlar yordamida yozadilar. Qolgan o'quvchilar esa mazkur topshiriqlarni daftarlarida bajaradilar.

«**TOPQIRLAR BAHSI**» («**Saxovat**» guruhiga)

T/r	Tasviriy ifodalar	Qiyoslangan so'zlar
1	<i>Sichqon ovlovchi kalxat</i>	
2	<i>Halol molni kuydirgan</i>	
3	<i>Yog'insiz bahor buluti</i>	
4	<i>Shohning bilagi</i>	
5	<i>Ov qilib, ov yirtqichlarini to'yg'azmoq</i>	
6	<i>Bir kulchani ikki bo'lib, yarmini och odamga bergan</i>	
7	<i>Eski chopon va bo'z to'n</i>	

«**TOPQIRLAR BAHSI**» («**Hilm**» guruhiga)

T/r	Tasviriy ifodalar	Qiyoslangan so'zlar
1	<i>Balandparvoz lochin</i>	
2	<i>Yorug' joyda sham yoqqan</i>	
3	<i>Hidsiz mushk-anbar</i>	
4	<i>O'limtikning sassiq badani</i>	
5	<i>Don o'g'irlab, tugun axtarmoq</i>	
6	<i>Bir kulchani hammasini muhtojga bergan</i>	
7	<i>Bemahal hadya qilingan zarbof chopon</i>	

Guruhlar ishini yakunlagach, monitorda to'g'ri javoblar aks etadi va o'qituvchi ishlarni baholaydi.

**V. Baholash va rag'batlantirish:** Mashg'ulot davomida guruhlar to'plagan rag'bat kartochkalari hisoblanadi va g'olib guruh aniqlanadi.

**O'qituvchi darsni quyidagi fikrlar bilan yakunlaydi:**

– Mana o'quvchilar, guvohi bo'lganingizdek, Alisher Navoiy qoldirgan meros hikmat durlariga to'la ummondir. Bu ummondagi durlardan imkon qadar ko'proq bahramand bo'lish insonni komillikka yetaklaydi. Shu bois Navoiy asarlarini mustaqil ravishda ham o'qib-o'rganib borishingizni tavsiya etaman. Zero, bunday hikmatlar hayot yo'lingizda shamchiroq bo'lishi tayin.

**VI. Uyga vazifa:** «Inson odobi bilan go'zal» mavzusida ijodiy ish yozish.